

Ish beruvchi: “Uzbekistan Airways” AJ aviakompaniyasi.

Bo‘linma: IT infratuzilma, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasining Ma‘murlashtirish va kiberxavfsizlik bo‘limi.

Stavka: 1,00.

Oylik maosh: shtat jadvaliga muvofiq.

Talab etilgan ish tajribasi: 3 yildan kam emas.

Bandlik shakli: to‘liq bandlik.

Ish rejimi: to‘liq ish kuni.

Talablari:

- Fuqaroligi: O‘zbekiston Respublikasi.
- Tugallangan oliy ma‘lumot: axborot-kommenikatsiya texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha.
- Lavozim vazifalarini bajarishga yetarli darajada o‘zbek, rus va ingliz tillarini bilish.
- Shu kabi lavozimda ish tajribasi – 3 yildan kam emas.
- Kiberxavfsizlik va boshqaruv bo‘yicha fundamental bilimlar.
- AT texnologiyalari bo‘yicha qo‘shimcha bilim, ko‘nikma va malakalarni tasdiqlovchi sertifikatlar (diplomlar va boshqalar) – ma‘qullanadi.
- Ingliz tilini bilishi to‘g‘risidagi sertifikat – ma‘qullanadi.

Vazifalari:

- Lavozim yo‘riqnomasida belgilangan talablarni bajarish, shuningdek:
- Maxfiylik talablariga rioya qilish.
- Mahalliy va korporativ tarmoqlar, IT infratuzilmasi dasturiy-apparat kompleksi, korporativ xizmatlar va AJ resurslarining uzluksiz ishlashini ta‘minlash.
- Bo‘lim vakolatlari doirasida AJning IT infratuzilmasi, korporativ xizmatlari va resurslarining dasturiy-apparat kompleksi boshqaruvini ta‘minlash.
- Bo‘lim vakolatiga kiruvchi AJ IT infratuzilmasining dasturiy-apparat komplekslariga dasturiy ta‘minotni yangilashni o‘rnatishni ta‘minlash.

- “Yakuniy nuqtalar”ning har tomonlama himoyasini ta’minlash bo’yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- AJ IT infratuzilmasining axborot xavfsizligini ta’minlash.
- AJ axborot tizimlari va IT infratuzilmasi boshqa tarkibiy qismlarining axborot xavfsizligi intsidentlari va zaifliklarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etishda ishtirok etish.
- Yuzaga kelishi mumkin bo’lgan axborot xavfsizligiga tahdidlarni aniqlash, dasturiy ta’minot va apparat zaifliklarini aniqlash.
- AJ axborot-kommunikatsiya tizimlarining ishlashi davomida maxfiy ma’lumotlarning chiqib ketishi va ularning faoliyat ko’rsatish jarayoniga ruxsatsiz aralashishning mumkin bo’lgan kanallarini aniqlash bo’yicha ishlarni doimiy ravishda olib borish.
- AJ xodimlariga axborot xavfsizligi va axborotni muhofaza qilish masalalari bo’yicha maslahat berishi;
- Tizimning ishlash jarayoniga noqonuniy aralashuvlar hamda AJ axborot tizimlarida qayta ishlangan, saqlanadigan va ko’rsatiladigan ma’lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish bo’yicha amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.
- Axborot xavfsizligi va axborotning texnik muhofazasini ta’minlash bo’yicha axborot sharhlarini tuzish.
- Yillik va choraklik ish rejalariga muvofiq, shuningdek, faoliyatning ayrim yo’nalishlari bo’yicha rejalashtirilgan ishlarni va rahbariyatning farmoyishi bo’yicha ishlarni o’z vaqtida va sifatli bajarish.
- AJ IT infratuzilmasi axborot xavfsizligining turli tahdidlaridan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar rejalarini tayyorlashi va amalga oshirish.
- Belgilangan vazifalar doirasida eng maqsadga muvofiq amaliy yechimlarni aniqlash uchun tadqiqotlar o’tkazish.
- Axborot xavfsizligini ta’minlash, axborot va texnik vositalarni himoya qilish usullaridan foydalanish bo’yicha boshqa tashkilotlar tajribasini o’rganish va umumlashtirish, uni himoya qilish bo’yicha ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish.
- Tezkor topshiriqlarni bajarish.
- AJ axborot xavfsizligini ta’minlash bo’yicha yagona siyosatni (kontseptsiyani), shu jumladan, AJ axborot xavfsizligi tizimiga qo’yiladigan talablarni aniqlashni ishlab chiqish va muntazam yangilashda ishtirok etish.
- Tegishli qismida bo’limning yillik va choraklik ish rejalarini tayyorlashda ishtirok etish.

- Tegishli qismida AJ IT infratuzilmasi obyektlarini yaratish (modernizatsiya qilish) uchun qisman tegishli texnik shartlarni ishlab chiqishi va kelishish.
- Avariya vaziyatlarning sabablarini taftish qilishda ishtirok etish.
- AJ rahbariyati tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlash, axborotni muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish.
- Axborot xavfsizligi, axborotni himoya qilish uchun tizimlarini joriy etishni amalga oshirish.
- AJda axborotni, shu jumladan maxfiy ma'lumotlarni va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilishi va baholash.
- Uskunalar va uning uchun zarur dasturiy ta'minotni xarid qilish bo'yicha takliflar tayyorlash.
- Bo'lim vakolatlari doirasida AJ tomonidan sotib olingan tovarlar, ishlar va xizmatlarning ayrim turlarini sotib olish uchun texnik talablarni tayyorlashda ishtirok etish.
- AJning ekspluatatsiyadagi avtomatlashtirilgan tizimlarini axborot xavfsizligini ta'minlash qismida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ro'y berayotgan o'zgartirishlarga muvofiqlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

Ish sharoitlari:

- Rasmiy ishga joylashish.
- 5 kunlik ish haftasi, soat 09:00 dan 18:00 gacha.
- O'z vaqtida, barqaror ish haqi.
- Sinov muddati: 3 oy.

Asosiy ko'nikmalar:

- O'zbek tili – B2 – o'rtacha-ilg'or daraja
- Rus tili – B2 – o'rtacha-ilg'or daraja
- Ingliz tili – B2 – o'rtacha-ilg'or daraja
- TCP/IP bo'yicha bilim
- OSI modelini tushunish
- Dasturiy ta'minot yoki uskunaning noto'g'ri ishlashi oqibatlarini/sabablarini aniqlay olish
- Tarmoq trafigini tahlil qilish

- Tarmoq infratuzilmasi xavfsizligini tahlil qilish
- Asosiy operatsion tizimlarning pochta va fayl xizmatlarini bilish
- Axborot xavfsizligini tahlil qila olish
- Zaifliklar haqidagi ma'lumotlar asosida axborot xavfsizligi tahdidlarini aniqlash (tahdidlarni tasniflash, zaifliklarni bartaraf etish va biznes risklarini minimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish)
- Risklarni boshqarish
- Xavfsiz infratuzilmani yaratish

Rezyume ko'rib chiqish uchun quyidagi elektron manzilga yuborilsin:

Alexey.Kirillov@uzairways.com

Erkin.Alimov@uzairways.com